

O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI: CHANG SOZINING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Nematxonova Masuma Qodirjon qizi

O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Xalq cholg'ulari bo'limi, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek milliy cholg'u sozlariga tegishli noyob ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada o'zbek milliy cholg'u sozlarining shakl – tuzilishi va ko'rinishi bilan bog'liq tomonlari, ijro uslublari borasida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doira, nog'ora.*

Аннотация: *В данной статье собрана уникальная информация о словах узбекского национального музыкального инструмента. Также в статье рассматриваются аспекты, связанные с формой, строением и внешним видом узбекских национальных музыкальных инструментов, а также стилями исполнения.*

Ключевые слова: *танбур, дутор, сато, рубоб, уд, флейта, труба, кошнай, карнай, гиджак, чанг, закон, круг, барабан.*

Abstract: *This article contains unique information about the words of the Uzbek national musical instrument. The article also discusses aspects related to the form, structure and appearance of Uzbek national musical instruments, as well as performance styles.*

Keywords: *tanbur, dutor, sato, rubob, oud, flute, trumpet, koshnai, karnai, gidjak, chang, law, circle, drum.*

Asosiy qism

O'zbek xalq cholg'ulari milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lib, ular o'zlarining uzoq tarixga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada chang sozi haqida so'z yuritiladi. Chang sozi O'zbekistonda va butun Markaziy Osiyoda keng tarqalgan musiqiy cholg'u asboblaridan biridir. Uning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida bilish milliy madaniyatimizni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Chang sozining kelib chiqishi: Chang sozi qadimiy cholg'u asboblaridan biri hisoblanadi. Uning kelib chiqishi haqida turli manbalar va afsonalar mavjud. Tarixiy manbalarga ko'ra, chang sozi dastlab Xitoyda paydo bo'lgan. U yerda bu cholg'u asbobi "yangqin" deb atalgan. Keyinchalik, bu asbob Markaziy Osiyo hududlariga tarqalgan va o'zbek xalq cholg'ulari orasida o'z o'rnini topgan. Milliy cholg'ular ijrochiligi ajdodlarimizning qadimiy turmush tarzi va ruhiyati, kayfiyatini aks ettirgan xalqimizning boyligidir. Milliy cholg'u ijrochiligining tarixi ajdodlar ruhini ma'nan his qilishga hamda o'zligimizni anglashdagi xizmati katta. Zamondosh olimlar va amaliyotchi mutaxassislar milliy cholg'ularning tuzilishidan tortib, ularda ijro etish masalalariga doim katta e'tibor berib kelmoqdalar.

Chang sozi dastlab oddiy yog'och va simlardan yasalgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan u turli modifikatsiyalarga uchragan. O'rta asrlarda chang sozi ustalari uning tuzilishini va ovoz berish sifatini yaxshilashga harakat qilganlar. Ushbu cholg'u asbobining O'zbekiston hududida keng tarqalishi aynan o'sha davrga to'g'ri keladi.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari musiqaning barcha tarmoqlariga mos shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Milliy cholg'ular tarixi va hozirgi kungacha bosqichma-bosqich rivojlanib kelayotganligini ajdodlarimizning musiqa madaniyatiga oid eng qadimiy ma'lumotlarda, xususan, hududimizdagi qoyatoshlarda chizilgan tasvirlarda, arxeologik qazilmalar paytida topilgan ashyolarda, turli bosma nashrlarda ishlangan rasm va miniatyura shaklida berilgan tasvirlarda ko'rishimiz mumkin. O'zbek milliy cholg'ularida ijrochilik tarixini o'rganishda o'rta asrlar musiqa ilmiga oid asarlar asosiy manbalardan hisoblanadi. Milliy cholg'ularimizning tarixiy jarayonini bilish aynan o'sha davrda yashab ijod qilgan olimlarning asarlarida keltirilgan.

Changdan qadimda va O'rta asr Sharq (Ossuriya, Misr, Shimoliy Hindiston, Eron, Markaziy Osiyo) madaniyatida qo'llanilgan. Hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududida qadimgi changdan taxminan 17-asrgacha qo'llanilgan. O'rta asrlarda Noqus Changiy, Mavlono Mirek Changiy Buxoriy, Xoja Bobo Changiy, Hofiz Changiy, Darvishali Changiy va boshqa chang ijrochilari tanilgan. Chang burchakli yoki yoysimon shaklda bo'lib, unga 13 va undan ortiq torlar o'rnatilgan.

Chang ijrochiligida o'ziga xosligi va ruhiyati bezakni ifoda etadigan yana bir sayqal mavjud. Bu bezak ham kuyga rang va joziba kiritish maqsadida ustoz Faxriddin Sodiqov ijro uslubida shakllangan va ijrochilikda an'anaga aylangan. Bu bezakning boshqa bezaklardan farqi u turg'un tovushlar va kuy bo'laklarning tasdiqlovchi tovushlarida qo'llaniladi, ya'ni arpejio ko'rinishida. Asosiy ko'rinish – ma'lum tovushning sayqallangan asosiy turg'un tovushga yordamchi ohang sifatida tarannum etish bilan baholanadi.

Changning tuzilishi va ishlatilishi: Chang sozi to'rtburchak shaklidagi yog'och qutidan iborat bo'lib, uning ustki qismiga simlar tortilgan. Simlar ustiga zarb qilinadigan maxsus tayoqchalar yordamida chang ijro etiladi. Chang cholg'usi keng diapazonga ega bo'lib, u boshqa cholg'ular bilan birga ansamblarda va yakka holda ham ishlatiladi.

Hozirda changdan o'zbek, tojik, uyg'ur xalqlari keng foydalanadi. O'zbekistonda keng ishlatiladigan hozirgi turi trapetsiya shakldagi tovushxonaga ega. Tovushqator asosini 14 sim tashkil etadi. Shu simlarning 13 tasi uchtadan bo'lib, bitta eng yo'g'on sim yakkadir. Shu asnodan torlarning umumiy soni 40 taga yetadi. Sim torlari 2 xarak vositasida 2 guruhga bo'linadi: o'ng xarak ustidan o'tkazilgan simlar past registrda, chap xarak ustidan o'tkazilganlari 1 va 1,5 oktava yuqori registrlarda ovoz chiqaradi. Changning diapazoni kattadir: katta oktava „lya-bemol“ dan ikkinchi oktava "mi-bemol" gacha yetadi.

Chang bambukdan ishlangan ikki cho'p yordamida urib chalinadi. 1930-yillarda yangi (xromatik tovushqatorga ega) turlari yaratildi (prima, tenor, bas). Jarangdor tembr, keng dinamik va texnik imkoniyatlari tufayli turli ansambl, xalq cholg'ulari orkestri tarkibida hamda yakkanavoz cholg'u sifatida keng tarqalgan.



1-rasm. Chang cholg'u asbobi

Chang sozi o'zbek xalq cholg'ulari orasida alohida o'rin egallaydi. Uning tarixi va kelib chiqishi haqida bilish milliy madaniyatimizni yanada boyitadi. Chang sozi qadimdan bugungi kunga qadar o'zining o'ziga xos ovozi va ijro uslubi bilan ko'plab san'atkorlarning sevimli cholg'usi bo'lib kelmoqda. Bu asbobning tarixi va rivojlanishi haqida chuqurroq o'rganish orqali biz milliy madaniyatimizni yanada boy va mazmunli qilib ko'rsatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. XI jild., "Ch" harfi.
2. «O'zbek xalq muzikasi V tom» To'plovchi va notaga oluvchi Yu.Rajabiy.
3. Shaxobdinovna, O. S. (2024). Matematika va informatika fanini o'qitishda "Interaktiv o'yin" lardan foydalanish. *Pedagog*, 7(3), 294-296.
4. Arzimatova, I. M. (2020). Spiritual Culture Of Personality And Artistic And Aesthetic Changes. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(11), 160-165.